



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil maxsus son

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori
Li Adik Aleksandrovichning 80 yosh yubileyiga bag'ishlanadi.*

VOLUME 5 / SPECIAL ISSUE / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev,
Y. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvaliyeva,
Y. Mahmudov,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 9-dekabrda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 13
Adadi: 100. Buyurtma: № 199.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (AQSh)

M. Vishovaty – Polshaning Gdansk universiteti professori (Polsha)

M. Hayat – Muhammadiyah Malang universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

A. Yakubov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro hamkorlik va uzluksiz ta'lim bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, yuridik fanlar doktori, professor

S. Yusupov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

E. Egamberdiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Fuqarolik huquqi kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sh. Ismoilov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Uzakova – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

G. Yo'ldasheva – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

A. Yo'ldoshev – Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar doktori

R. Altiev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini professori v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. Oripov – Toshkent davlat agrar universiteti Huquqshunoslik kafedrasini dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

F. Hamdamova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasini dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. So'fiyeva – Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasini katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Мустафаев,
Е. Ярмолик,
Э. Шарипов,
К. Абдувалиева,
Й. Махмудов,
М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт:

jurisprudence.tsul.uz

E-mail:

lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс:

1387.

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.
Журнал передан в типографию
09.12.2025.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 13. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 199.

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент,
ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – профессор юридической школы Бостонского колледжа (Бостон, США), доктор юридических наук

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

М. Хаят – преподаватель Университета Мухаммадия Маланг (Индонезия)

А. Хошимхонов – первый проректор по делам молодёжи и духовно-просветительской работе Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

А. Якубов – проректор по международным связям и дополнительному образованию Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

М. Ахмедшаева – профессор кафедры теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Х. Хайитов – депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

С. Юсупов – заведующий кафедрой административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Э. Эгамбердиев – доцент кафедры гражданского права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ш. Исмоилов – заведующий кафедрой трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, доцент

Г. Узакова – профессор кафедры экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Г. Юлдашева – профессор кафедры международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Юлдашев – доцент кафедры конституционного права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Р. Алтиев – и.о. профессора кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

М. Курбанов – и.о. профессора кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

С. Орипов – доцент кафедры права Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ф. Хамдамова – и.о. доцента кафедры международного и публичного права Университета мировой экономики и дипломатии, доктор юридических наук

Д. Суфиева – старший преподаватель кафедры теории государства и права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Р. Кучкаров – доцент кафедры общеобразовательных дисциплин и культуры Ташкентского государственного юридического университета, кандидат филологических наук

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Mustafaev,
E. Yarmolik,
E. Sharipov,
K. Abduvalieva,
Y. Makhmudov,
M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 09.12.2025.

Paper size: A4. Cond.p.f: 13.

Units: 100. Order: № 199.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

M. Hayat – Lecturer of the University of Muhammadiyah Malang (Indonesia)

A. Khoshimkhonov – First Deputy Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

A. Yakubov – Deputy Rector for International Relations and Further Education of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

M. Akhmedshaeva – Professor of the Department of Theory of State and Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

Kh. Khayitov – Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

S. Yusupov – Head of the Department of Administrative and Financial Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

E. Egamberdiev – Associate Professor of the Department of Civil Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Sh. Ismoilov – Head of the Department of Labor Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Associate Professor

G. Uzakova – Professor of the Department of Environmental Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

G. Yuldasheva – Professor of the Department of International Law and Human Rights at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Yuldoshev – Associate Professor of the Department of Constitutional Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Law

R. Altiev – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

M. Kurbanov – Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

S. Oripov – Associate Professor of the Department of Law at Tashkent State Agrarian University, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

F. Hamdamova – Acting Associate Professor of the Department of International Law and Public Law at the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law

D. Sufiyeva – Senior Lecturer of the Department of Theory of State and Law at Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

R. Kuchkarov – Associate Professor of the Department of General Sciences and Culture at Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**

Raqamlashtirish sharoitida davlatning moliyaviy funksiyasi rivojining ayrim nazariy-huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

16 **YUSUPOV SARDORBЕК BAXODIROVICH**

Budjet jarayonida davlat va nodavlat organlarining ishtiroki

23 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**

Tadbirkorlik faoliyati sohasida davlatning moliyaviy siyosati

32 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini moliyaviy-huquqiy tartibga solish masalalari

39 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**

O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining rivojlanish tendensiyalari

54 **SAMIGDJANOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**

"Budjet jarayoni" tushunchasi, uning xususiyatlari va bosqichlari

61 **AVEZOVA ELEONORA PARAXATOVNA**

Xalqaro standartlar va ularning O'zbekiston moliyaviy tizimiga integratsiyasi

71 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**

Ekologiya sohasida maxsus vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining ilmiy-nazariy asoslari: prinsiplari va metodlari

78 **GANIYEV BOXODIR RUSTAM O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasida kriptovalyuta sohasidagi faoliyatni tartibga solish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

84 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning tushunchasi va mohiyati huquqiy toifa sifatida

91 **JURAYEVA ASAL BAXTIYEVNA, ABDIRAXIMOV ISLOMJON ILXOMJON O'G'LI**

Germaniya va O'zbekiston xalqaro tijorat arbitrajlarida korporativ nizolarni hal etish: qiyosiy huquqiy tahlil

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

100 **NARZULLAYEV OLIM XOLMAMATOVICH**

Biologik xilma-xillikni muhofaza qilishning ekologik-huquqiy asoslari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА.
ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА

Отдельные теоретико-правовые вопросы развития финансовой функции государства в условиях цифровизации

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

16 ЮСУПОВ САРДОРБЕК БАХОДИРОВИЧ

Участие государственных и негосударственных органов в бюджетном процессе

23 ЛИ АДИК АЛЕКСАНДРОВИЧ

Государственная финансовая политика в сфере предпринимательской деятельности

32 ЖУРАЕВ ШЕРЗОД ЮЛДАШЕВИЧ

Финансово-правовое регулирование занятости в Республике Узбекистан

39 ГОЗИЕВ КОЗИМБЕК ЖОВЛОНБЕКОВИЧ

Тенденции развития законодательной базы, регулирующей деятельность высших образовательных организаций в Узбекистане

54 САМИГДЖАНОВ ФАЗЛИДДИН РАФКАТОВИЧ

Понятие бюджетного процесса, его особенности и этапы

61 АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА

Международные стандарты и их интеграция в финансовую систему Узбекистана

71 АХРОРОВ АДХАМЖОН АСРОРКУЛ УГЛИ

Научно-теоретические основы деятельности специально уполномоченных республиканских органов исполнительной власти в сфере экологии: принципы и методы

78 ГАНИЕВ БОХОДИР РУСТАМ УГЛИ

Регулирование деятельности в сфере криптовалют в Республике Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

84 РАХМОНОВ ОТАБЕК КУЧКОР УГЛИ

Понятие и сущность корпоративного управления в акционерных обществах как юридической категории

91 ЖУРАЕВА АСАЛ БАХТИЕВНА, АБДИРАХИМОВ ИСЛОМЖОН ИЛХОМЖОН УГЛИ

Разрешение корпоративных споров в международном коммерческом арбитраже в Германии и Узбекистане: сравнительно-правовой анализ

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО.
ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

100 НАРЗУЛЛАЕВ ОЛИМ ХОЛМАМАТОВИЧ

Экологико-правовые основы сохранения биологического разнообразия

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **AKHMEDSHAEVA MAVLYUDA AKHATOVNA**

Some theoretical and legal issues of the development of the financial function of the state in the conditions of digitalization

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

16 **YUSUPOV SARDORBEC BAKHODIROVICH**

Participation of state and non-state bodies in the budget process

23 **LI ADIK ALEKSANDROVICH**

State financial policy in the sphere of entrepreneurial activity

32 **JURAEV SHERZOD YULDASHEVICH**

Financial and legal regulation in the sphere of employment of the population in Republic of Uzbekistan

39 **GOZIEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**

Administrative and legal aspects of the development of the field of higher education until 2030 during the period of administrative reforms

54 **SAMIDJANOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**

The concept of the budget process, its characteristics and stages

61 **AVEZOVA ELEONORA PARAKHATOVNA**

International standards and their integration into the financial system of Uzbekistan

71 **AKHROROV ADKHAMJON ASRORKUL UGLI**

Scientific and theoretical foundations of the activities of specially authorized republican executive authorities in the field of ecology: principles and methods

78 **GANIEV BOKHODIR RUSTAM UGLI**

Regulation of cryptocurrency activities in the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

84 **RAXMONOV OTABEK KUCHKOR UGLI**

The concept and essence of corporate governance in joint stock companies as a legal category

91 **JURAEVA ASAL BAKHTIEVNA, ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI**

Resolution of corporate disputes in international commercial arbitration in Germany and Uzbekistan: a comparative legal analysis

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

100 **NARZULLAEV OLIM KHOLMAMATOVICH**

Ecological and legal basis of biological diversity conservation

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 21.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 09.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI/QIUM7748

UDC: 342.5(045)(575.1)

BUDJET JARAYONIDA DAVLAT VA NODAVLAT ORGANLARINING ISHTIROKI

Yusupov Sardorbek Baxodirovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasini mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-8193-167X
e-mail: s.yusupov022@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada budjet mablag'laridan foydalanish mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritilgan bo'lib, davlat iqtisodiyotini samarali boshqarish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar tahlil qilingan. Jumladan, budjet jarayonida nodavlat organlarning ishtiroki budjet mablag'larining oqilona va samarali sarflanishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi, balki korrupsiyani kamaytirish, davlatning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirishda ham hal qiluvchi omil hisoblanishiga e'tibor qaratilgan. Maqolada budjet mablag'laridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishda shaffoflikni ta'minlash, davlat xaridlarini adolatli va raqobatbardosh asosda amalga oshirish, tender tizimini rivojlantirish, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy qilish kabi choralar muhimligi alohida ta'kidlanib, bunda davlat va nodavlat tashkilotlarning o'рни tahlil qilingan. Ayniqsa, davlat xarajatlarini ochiq platformalar orqali kuzatish, fuqarolar va nodavlat tashkilotlarini bu jarayonlarga jalb qilish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: budjet jarayoni, daromadlar, xarajatlar, budjet tizimi, davlat organi, nodavlat tashkiloti, platforma, jamoatchilik nazorati

УЧАСТИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ В БЮДЖЕТНОМ ПРОЦЕССЕ

Юсупов Сардорбек Баходирович,
доктор юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой
«Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы совершенствования механизма использования бюджетных средств, анализируются факторы, имеющие важное значение для эффективного управления государственной экономикой и повышения социального благосостояния. В частности, подчёркивается, что участие негосударственных организаций в бюджетном процессе способствует не только рациональному и эффективному расходованию бюджетных средств и обеспечению экономической стабильности, но и снижению уровня коррупции, а также укреплению социальной ответственности государства. В статье

акцентируется важность обеспечения прозрачности при использовании бюджетных средств, справедливого и конкурентного осуществления государственных закупок, развития тендерной системы, внедрения системы бюджетирования, ориентированной на результат. Анализируется роль государственных и негосударственных организаций в этих процессах. Особое внимание уделено вопросам усиления общественного контроля посредством мониторинга государственных расходов через открытые платформы и вовлечения граждан и негосударственных институтов в данные процессы.

Ключевые слова: бюджетный процесс, доходы, расходы, бюджетная система, государственный орган, негосударственная организация, платформа, общественный контроль

PARTICIPATION OF STATE AND NON-STATE BODIES IN THE BUDGET PROCESS

Yusupov Sardorbek Bakhodirovich,
Head of the Department
of Administrative and Financial Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law, Professor

Abstract. This article covers the issues of improving the mechanism of use of budgetary funds and analyzes the factors that are important in the effective management of the state economy and in improving social well-being. In particular, the participation of non-governmental bodies in the budget process and the rational and effective expenditure of budgetary funds provides not only economic stability. And it is also a decisive factor in reducing corruption and strengthening the social responsibility of the state. The article analyzes the importance of measures such as increasing transparency in improving mechanisms for the use of budgetary funds, the implementation of public procurement on a fair and competitive basis, the development of a tender system, the implementation of a result-oriented budgeting system, and the role of state and non-governmental organizations in this. In particular, issues related to strengthening public control have been outlined through monitoring public spending via open platforms and by involving citizens and NGOs in these processes.

Keywords: budget process, revenues, expenses, budget system, government agency, non-governmental organization, platform, public control

Kirish

Har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti samarali budjet siyosatini yuritishga chambarchas bog'liq. Budjet jarayoni davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish tizimi bo'lib, unda nafaqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlari ham faol ishtirok etadi.

Davlat organlari budjetni tuzish, tasdiqlash, ijrosini tashkil etish hamda nazorat qilish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Nodavlat sektor esa jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, ijtimoiy loyihalarda hamkorlik qiladi va aholining manfaatlarini ifoda-

laydi. Shu tariqa budjet jarayonida davlat va nodavlat tuzilmalarining o'zaro hamkorligi mamlakatda ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Davlat budjeti – mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadigan asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Budjet mablag'larining to'g'ri taqsimlanishi aholining farovonligini oshirish, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Ma'lumki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida moliya sohasida davlat nazorat organlari faoliyati yo'lga

qo'yilgan. Jahon amaliyotida ishlab chiqilgan davlat nazorati sohasidagi umumiy tamoyillarga qonuniylik, xolislik, mustaqillik va oshkoralik kiradi.

Huquqshunos olimlar o'z asarlarida davlat budjeti ustidan nazorat, uning vazifa va funksiyalari bo'yicha turli yondashuvlarni bayon etishgan. Masalan, parlament nazorati shular ichidagi eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Akademik A. Saidov parlament nazoratiga "qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan amaldagi qonunlarning samarali ijro etilishi uchun doimiy monitoring qilish, ijro hokimiyati organlari faoliyatining qonunchilik va normalarga muvofiqligini tekshirish, shuningdek, tekshiruvlar natijasida aniqlangan huquqbuzarliklarni bartaraf qilish va oldini olishga qaratilgan turli kompleks chora-tadbirlar" deya ta'rif beradi (Saidov, 2019).

Sh. Zulfikarovning fikricha, parlament nazorati mustaqil va qonuniy, tizimli vakillik organi faoliyati bo'lib, uning palatalari, qo'mita va komissiyalari, palata a'zolarining ijro hokimiyati hamda boshqa davlat organlari, xo'jalik boshqaruv organlarining inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga rioya qilinishini ta'minlash hamda konstitutsiyaviy va joriy qonunlar ijrosini nazorat qilish faoliyati hisoblanadi (Zulfikarov, 2015). Rossiyalik huquqshunos olim T. Xabriyevaning fikricha, budjet jarayoni nazorati "... birinchidan, bu reglamentatsion darajadagi huquqni amalga oshirishning huquqiy tadbiridir. Ikkinchidan, budjet ijrosi nazoratini amalga oshirish asoslari, tartiblari va shakllari qonun bilan belgilab qo'yiladi (Khabriev, 2006). A.D. Kerimov va T. Xabriyevaning fikricha, parlament nazorati, avvalo, ma'muriyatning davlatdagi hokimiyati amalda butunlay, cheklanmagan tarzda egallab olinishi, demokratik institutlar faoliyati yo'qqa chiqarib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarurdir (Khabriev, 2006). Demak, budjet ijrosi yuzasidan nazorat davlat budjeti mablag'lari ish-

latilishini qonunlarga, me'yoriy hujjatlarga va belgilangan maqsadlarga muvofiqligini tekshirish, budjet ijrosi jarayonidagi samaradorlik, shaffoflik va iqtisodiy samarani baholash hamda aniqlangan kamchiliklar va qonunbuzarliklarni bartaraf etish jarayonidir.

Davlat budjeti jarayonida nafaqat davlat organlari, balki nodavlat organlari ham ma'lum bir vazifa va funksiyalarga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi-ning 69-moddasiga binoan davlat budjetining xarajat qismi quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- iqtisodiyot xarajatlari;
- markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari;
- sudlarni saqlab turish xarajatlari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Davlat budjetining xarajat qismi tarkibida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining xazira jamg'armalari hisobga olinadi (Zulfikarov et al., 2015).

Budjet jarayoni – budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning shakllantirilishini, tuzilishini hamda ijrosini nazorat qilish, budjet tizimi budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayon faqat budjet mablag'larini taqsim-

lash yoki xarajatlarni rejalashtirish bilangina cheklanmaydi. U, avvalo, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalda ro'yobga chiqarish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Budjet jarayonining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- budjet loyihalarini tayyorlash va shakllantirish;
- ularni tegishli davlat organlari tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- tasdiqlangan budjetning ijrosini tashkil etish va nazorat qilish;
- budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish, tahlil qilish va tasdiqlash.

Bundan tashqari, budjet jarayoni doirasida turli darajadagi budjetlar – respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, tuman va shahar budjetlari o'rtasida o'zaro moliyaviy munosabatlar ham shakllanadi (Belobragin et al., 2019).

Umuman olganda, budjet jarayoni – davlatning iqtisodiy siyosatini amaliyotga tatbiq etuvchi, mamlakat resurslarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan murakkab, lekin muhim mexanizm hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda budjet islohotlariga bo'lgan ehtiyojni bir necha sabablar bilan izohlash bo'ladi. Bir tomondan, jamiyatning fiskal organga o'tkazayotgan ta'siri hukumatni davlat budjetini shakllantirishda manfaatdor taraflar bilan murosaga kelishga undamoqda. Ikkinchi tomondan, parlament a'zolari tushunarli bo'lgan budjetga ega bo'lishni, uni shakllantirish, qabul qilish va ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishda faol rol o'ynashni xohlamoqdalar. Oddiy fuqarolarning orzusi soliqlardan tushayotgan mablag'lar qanday ishlatilgani haqida haqqoniy va to'la ma'lumot olishdir. Ijro etuvchi organlar esa, o'z navbatida, parlament a'zolaridan davlat budjetini shakllantirishning maqsadi va vazifalari bo'yicha ularning aniq yondashuvini bilishni, budjet mablag'larini sarflashda

imkoni boricha kengroq erkinlikni va mustaqillikni talab qilmoqdalar (Zulfikarov et al., 2015).

Oxirgi o'n yillikda turli mamlakatlarda keng qamrovli budjet islohotlari amalga oshirilgan. Jumladan, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Kanada va Shvetsiyada shunday islohotlar o'tkazildi. Ularning ijobiy natijalaridan Fransiyaning davlat budjetini yanada takomillashtirish siyosatida keng foydalanilgan (Belobragin et al., 2019).

So'nggi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan budjet islohotlari davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va jamoatchilik oldida ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu islohotlar asosan jamiyat, hukumat va parlament o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda muvozanatni mustahkamlash, shuningdek, davlat boshqaruvida natijadorlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Birinchidan, islohotlarning asosiy maqsadi – davlat budjeti bilan bog'liq siyosatni barcha fuqarolar uchun ochiq va tushunarli shaklda ifodalashdir. Buning uchun budjetning yangi, soddalashtirilgan va shaffof tuzilmasi joriy etilib, soliq to'lovchilarga ularning to'lovlari qanday sarflanayotgani haqida muntazam va batafsil hisobotlar taqdim etilmoqda. Bu yondashuv fuqarolarning davlat moliyasi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va hukumat faoliyatiga ishonchni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, islohotlar davlat budjeti boshqaruvining yangi madaniyatini – natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda budjet mablag'larini samarali sarflash, xarajatlar uchun mas'uliyatni oshirish hamda ularning natijalarini baholash mexanizmlarini joriy etish muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, budjet jarayoniga nafaqat mablag' taqsimlash tizimi, balki davlat faoliyatining iqtisodiy natijalarini o'lchaydigan vosita sifatida ham qaralmoqda.

Uchinchidan, budget islohotlari doirasida davlat buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiyalash orqali moliyaviy shaffoflik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa davlat moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ochiq ma'lumotlar tizimini kengaytirish va hisobdorlikni ta'minlash imkonini beradi (Young, 2017).

Davlat organlari budget jarayonining barcha bosqichlarida bevosita ishtirok etadi. Ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Oliy Majlis palatalari – davlat budjeti loyihasini ko'rib chiqadi, muhokama qiladi va tasdiqlaydi. Shuningdek, budget ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi – budget loyihasini ishlab chiqish va uni parlamentga kiritish, shuningdek, budgetning ijrosini ta'minlash bilan shug'ullanadi.

Moliya vazirligi – budgetni shakllantirish, mablag'larni taqsimlash, budget ijrosini tashkil etish va nazorat qilishda markaziy organ sifatida harakat qiladi.

Hisob palatasi – budget mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi, moliyaviy intizomga rioya etilishi yuzasidan tashqi audit va nazoratni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari – hududiy budgetlarni tuzish, tasdiqlash va ijrosini ta'minlash, shuningdek, aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda moliyaviy siyosat yuritish bilan shug'ullanadi.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 10-moddasida belgilanishicha, “Qonunchilik palatasi majlisiga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlarining, televideniye, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif qilinishi mumkin”. O'zbekiston Prezidenti tomonidan olib borilayotgan islohotlarning ham negizida aynan nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy

siyosatdagi ishtirokini kengaytirish masalasi yotgani bejiz emas.

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va fuqarolik jamiyati institutlari ham budget jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ularning ishtiroki, avvalo, budget ochiqligi va jamoatchilik nazoratini ta'minlashda namoyon bo'ladi (Vinogradova, 2012).

NNTlar budget loyihalari yuzasidan jamoatchilik muhokamalarida qatnashadi, aholining manfaatlarini ifoda etadi hamda takliflar kiritadi (Cofelice, 2022).

Ommaviy axborot vositalari budget jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritish orqali ochiqlik va shaffoflikni kuchaytiradi.

Ilmiy muassasalar va mutaxassislar budget siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy tahlillarni amalga oshirish va ekspert xulosalarini tayyorlash orqali amaliy yordam beradi (Murzakulova, 2012).

Fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratini amalga oshirib, budget mablag'larining maqsadli sarflanishi va ijtimoiy loyihalarning samaradorligini baholaydi (Kanis, 2012).

Xalqaro amaliyotda ham budget xarajatlarining samaradorligi parlament va jamoatchilik nazoratining predmeti hisoblanadi (Kradinov, 2012). Bu borada AQShda 2003-yildan hukumat tomonidan taqdim etiladigan davlat dasturlarini baholashning yangi mexanizmi (*Program Assessment Rating Tool – PART*) joriy qilindi. Mazkur mexanizmga muvofiq, AQSh Kongressi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar bilan moliyalashtiriladigan davlat dasturlari va loyihalar samaradorligini maxsus anketalar yordamida 5 ta reyting: “samarali”, “o'rtacha samarali”, “adekvatli”, “samarasiz” va “ma'lumotlar mavjud emas” bo'yicha baholab kelmoqda.

Mazkur reytingga qarab, AQSh parlamenti davlat loyihalarini davlat budjetidan moliyalashtirish hajmini belgilaydi. Xuddi shunga o'xshash amaliyot Kanadada (*Expenditure Management System – EMS*) (*Website of John Mercer*), Buyuk Britaniyada (*Comprehensive*

Spending Review – CSR) [14], Fransiyada ham qo'llangan.

Hozirgi kunda Davlat budjeti ijrosi haqidagi ma'lumotlar asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatning rasmiy veb-saytlaridagina joylashtirilib boriladi. Biroq mazkur ma'lumotnomalar bilan aholining keng qatlamlari, ayniqsa, internetdan foydalanish imkoniyatlari chegaralangan hududlarda tanishishi ko'p qiyinchiliklar tug'diradi.

Ikkinchidan, milliy parlamentning rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan davlat budjeti haqidagi ma'lumotlar o'ta chegaralangan va ular da davlat budjetining barcha parametrlari (masalan, mudofaa va xavfsizlik sohalaridagi xarajatlar, tabiiy boyliklardan olingan daromadlarning sarflanishi va h.k.) ko'rsatilmagan.

Shu bilan birga, davlat budjetining ijrosiga oid ma'lumotlar keng jamoatchilik tomonidan tanishib chiqilishi uchun qaysi manbalarda joylashtirilishiga tegishli talablar qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilmagan.

Mazkur holatni bartaraf etish maqsadida parlament palatalariga kelib tushgan va ularning mas'ul qo'mitalarida muhokama qilish uchun tayyorlanadigan Davlat budjeti loyiha-

si va uning ijrosi haqidagi barcha ma'lumotlarni ochiq manbalarda joylashtirish talabi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi (20-, 31-moddalarida) va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi qonunlarida (16-, 32¹⁰-moddalarida) mustahkamlab qo'yish taklif etiladi.

Xulosa

Budjet jarayonida davlat va nodavlat sektorlarining o'zaro hamkorligi moliyaviy boshqaruvda muvozanatni ta'minlash, ochiqlikni oshirish va korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Ular o'rtasidagi muloqot, jamoatchilik eshituvi va ochiq hisobot tizimlari orqali davlatning moliyaviy faoliyatiga ishonch ortadi. Davlat va nodavlat organlarining budjet jarayonidagi faol ishtiroki – samarali moliyaviy boshqaruv, ochiq va mas'uliyatli hukumat tamoyillarini amalga oshirishning muhim kafolatidir. Shu bois, budjet siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda barcha manfaatdor tomonlarning – davlat idoralari, NNTlari, ilmiy muassasalar va fuqarolik jamiyatining faol hamkorligi zarur.

REFERENCES

1. Belobragin, V., Salimova, T., & Biryukova, L. (2019). Standartizatsiya v dostizhenii tseley OON v oblasti ustoychivogo razvitiya [Standardization in achieving the UN Sustainable Development Goals]. *Standards and Quality*, 985(7).
2. Cofelice, A. (2022). *International parliamentary institutions: some preliminary findings and setting a research agenda*.
3. Khakimov, R. (2012). *Davlat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari* [Parliament in the system of state power: problems of theory and practice] (p. 182). Tashkent.
4. Khabrieva, T. Ya. (2006). *Osnovy parlamentskogo prava* [Fundamentals of Parliamentary Law] (p. 224). Moscow: State Duma Publ.
5. Kanis, A. M. (2012). *Parliamentary control of budget implementation* (p. 14). Brussels: European Commission.
6. Kradinov, P. G. (2011). *Otsenka effektivnosti raskhodov programmy* [Evaluation of the effectiveness of program expenditures]. <https://www.nifi.ru/images/FILES/Journal/Archive/2011/1/statii/>

7. Mirakulov, M. (2016). Parlament va jamoatchilik nazorati: uning mohiyati va ahamiyati [Parliament and public oversight: its essence and importance]. *Huquq va burch [Law and Duty]*, 2, 28.
8. Murzakulova, A. D. (2012). Mezhparlamentskie instituty v protsesse integratsii SNG [Interparliamentary institutions in the process of CIS integration]. *Eurasian Economic Integration*.
9. Official website of the Canadian Treasury. <http://www.tbs-sct.gc.ca/sr-es/index-eng.asp>
10. Official website of the UK Treasury. http://www.hm-treasury.gov.uk/spend_plancontrol.htm
11. Saidov, A. (2019). *K teorii parlamentskogo kontrolya. Parlament [Toward a Theory of Parliamentary Control. Parliament]* (pp. 23–26). Proceedings of scientific-practical seminar. Tashkent.
12. Vinogradova, A. A. (2012). Mezhparlamentskie instituty: dinamika razvitiya [Interparliamentary institutions: development dynamics]. *Obozrevatel [Observer]*, 12, 75–92.
13. Website of John Mercer – President of Strategisys LLC. <http://www.john-mercero.com/library/part.pdf>
14. Young, O. R., (2017). *Conceptualization: Goal setting as a strategy for earth system governance*. In N. Kanie and F. Biermann (Eds.). *Governing through goals: Sustainable Development Goals as governance innovation* (pp. 31–51). Cambridge: MIT Publ.
15. Zulfikarov, Sh. et. al. (2015). *Parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlar: qiyosiy huquqiy tahlil [Relations between Parliament and Government: A Comparative Legal Analysis]* (p. 12). [Monograph]. Tashkent: TSIL Publ.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL MAXSUS SON

VOLUME 5 / SPECIAL ISSUE / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.SI